

ISLOM MADANIYATINING RIVOJLANISHIGA MARKAZIY OSIYODAGI ULAMO HISSASI

Andalipov Umidjon Ziyodullo o'g'li
Farg'ona davlat univesiteti

Anotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyodagi ulamolarning islom madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga qo'shgan hissasi ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Xususan, ularning faoliyati orqali mintaqada ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va axloqiy qadriyatlar qanday shakllangani o'rganiladi. Maqolada Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Zamaxshariy kabi buyuk allomalarning ilmiy ishlari va madaniy hayotdagi o'rni misollar orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. *Islom madaniyati, ulamolar, Markaziy Osiyo, ilmiy meros, ta'lim tizimi, madaniyat, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, tasavvuf, madrasalar, kutubxonalar, axloqiy qadriyatlar, tarixiy meros, ilm-ma'rifat*

Annotation. This article explores the scientific and theoretical contribution of scholars from Central Asia to the formation and development of Islamic civilization. In particular, it examines how their activities shaped the fields of science, literature, architecture, and moral values in the region. The article highlights the scholarly works and cultural roles of great thinkers such as Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan al-Biruni, Ibn Sina, Imam al-Bukhari, and al-Zamakhshari through relevant examples.

Keywords. Islamic civilization, scholars, Central Asia, scientific heritage, education system, culture, Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina, al-Biruni, Sufism, madrasahs, libraries, moral values, historical heritage, knowledge and enlightenment

Аннотация. В данной статье научно-теоретически рассматривается вклад ученых Центральной Азии в формирование и развитие исламской цивилизации. В частности, анализируется, как их деятельность способствовала развитию науки, литературы, архитектуры и нравственных ценностей в регионе. В статье приводятся примеры научных трудов и культурной роли таких выдающихся мыслителей, как Абу Наср аль-Фараби, Абу Райхан аль-Бируни, Ибн Сина, Имам аль-Бухари и аз-Замахшари.

Ключевые слова. *Исламская цивилизация, ученые, Центральная Азия, научное наследие, система образования, культура, Абу Наср аль-Фараби, Ибн Сина, аль-Бируни, суфизм, мадраса, библиотеки, нравственные ценности, историческое наследие, знание и просвещение*

Islom madaniyati, o‘zining tarixiy ildizlari, boy merosi va ko‘lamli ta’siri bilan insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan sivilizatsiyalardan biridir. Bu madaniyat nafaqat diniy hayot, balki ilm-fan, adabiyot, san’at, falsafa va ijtimoiy taraqqiyot sohalarini ham o‘z ichiga olgan keng qamrovli hodisa sifatida shakllangan. Islomning ilk davrlaridanoq, bilim olish, tafakkur qilish, dunyoni idrok etish, adolatli jamiyat qurish g‘oyalari markaziy o‘rinda bo‘lgan. Qur’oni karim va hadislar asosida shakllangan bu madaniyatda ilm egalariga, ya’ni ulamolarga yuksak maqom berilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning “Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayolga farzdur” degan hadisi bu boradagi asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qilgan. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, bugungi O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududlari qadimdan buyuk ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lgan. Islom dini bu hududga yetib kelganidan so‘ng, ayniqsa VIII–XII asrlarda mintaqada ilmiy va madaniy yuksalish davri boshlandi. Bu davrda ko‘plab madrasa, kutubxona, ilmiy majlislar va madaniy muassasalar faoliyat yurita boshladi. Aynan shu davrda yetishib chiqqan olim va ulamolar islom madaniyatining poydevorini mustahkamlashda, uni ilmiy asosda rivojlantirishda beqiyos hissa qo‘shdilar. Ularning faoliyati nafaqat dini, balki dunyoviy bilimlarning ham yuksalishiga xizmat qildi. Shu sababli, Markaziy Osiyo ko‘p asrlar davomida islom dunyosining muhim ilmiy va ma’naviy markazlaridan biri sifatida tan olingan. Bu mintaqada yetishib chiqqan ulamolar orasida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Iso Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi jahon ilm-fani va islom tafakkurining zabardast vakillari bor. Ularning har biri o‘zining nodir asarlari, ilmiy qarashlari, falsafiy mulohazalari orqali islom tafakkuriga yangi yo‘nalishlar olib kirdi. Masalan, Imom Buxoriy tomonidan to‘plangan "Al-Jome' as-Sahih" asari nafaqat hadis ilmining eng ishonchli manbasi sifatida tan olingan, balki butun musulmon olami uchun diniy asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. Forobiy esa yunon falsafasini islom doirasiga olib kirgan va tafakkur maktablarini rivojlantirishda asosiy vositachilardan biri bo‘lgan. Beruniy va Ibn Sino esa o‘zlarining ilmiy

tadqiqotlari bilan islom madaniyatini nafaqat diniy, balki ilmiy-falsafiy asoslar bilan boyitganlar.

Markaziy Osiyo ulamolari faqatgina dini masalalar bilan shug‘ullanmagan, balki matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo, geografiya, tilshunoslik, mantiq, huquqshunoslik kabi ko‘plab sohalarda ham jahon ilm-faniga muhim yangiliklar olib kirganlar. Ularning asarlari asrlar davomida Yevropa va Osiyo olimlari tomonidan o‘rganilgan, tarjima qilingan va ilmiy manba sifatida foydalanilgan. Ayniqsa, O‘rta asrlarda Andalusiya, Bag‘dod, Qohira kabi islom madaniy markazlarida Markaziy Osiyo ulamolarining asarlari keng muhokama qilingan, ta‘lim jarayonlarining ajralmas qismiga aylangan. Bu esa mintqa ulamolarining islom ummatidagi mavqei naqadar yuksak bo‘lganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Islom madaniyati va Markaziy Osiyo ulamolarining o‘zaro aloqasi faqat tarixiy emas, balki bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ularning ilmiy merosi hozirgi zamon islomshunosligi, falsafa, tarixshunoslik va boshqa ko‘plab fanlar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, o‘z milliy va ma‘naviy merosiga bo‘lgan qiziqish ortdi, ulamolarimizning asarlari qayta nashr qilina boshlandi, ilmiy tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi. Bu esa nafaqat ulamolarimizning islom madaniyatiga qo‘shgan hissasini chuqurroq o‘rganish, balki ularning merosini zamonaviy kontekstda talqin qilish imkonini bermoqda.

Islom madaniyatida ilm olish eng oliy qadriyatlardan biri sifatida qaralgan bo‘lib, bu tamoyil musulmon jamiyatlarida ta‘lim tizimining shakllanishiga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida yetishib chiqqan buyuk ulamolar ta‘lim tizimi asoslarini yaratishda, uni takomillashtirishda va keng miqyosda joriy etishda muhim rol o‘ynaganlar. Ularning ilmga bo‘lgan yuksak e‘tibori, ta‘lim-tarbiyani jamiyat taraqqiyotining negizi sifatida ko‘rishi, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash borasidagi qarashlari hozirgi zamon ta‘lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ilm-fan va ta‘limga e‘tibor islom dini asosida shakllangan bo‘lib, Qur‘oni karimda “Bilibdurlar ichra Allohdan eng ko‘p qo‘rqadiganlar olimlardir” (Fatir surasi, 28-oyat) degan oyat, shuningdek, “Bilim talab qilish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir” degan hadis bu boradagi asosiy ilohiy dalillardandir. Markaziy Osiyo ulamolari aynan shu ilohiy buyruqlar asosida ta‘lim tizimini rivojlantirishni o‘z

oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar. Dastlab, masjidlar huzurida tashkil etilgan maktab va madrasa tizimlari, vaqt o‘tishi bilan mustaqil ilm maskanlariga aylana bordi. Bu maskanlarda nafaqat dini bilimlar, balki mantiq, falsafa, matematika, tibbiyot, astronomiya kabi dunyoviy fanlar ham o‘rgatilgan.

Ulamolar ta’lim tizimining shakllanishida ikki asosiy vazifani bajargan: birinchidan, ular bevosita o‘zlari muallim bo‘lganlar, ikkinchidan, ular tomonidan yozilgan asarlar ta’lim dasturlarining asosiy manbalariga aylangan. Misol uchun, Imom Buxoriy va Imom Termiziy tomonidan to‘plangan hadislar nafaqat dini ta’limning asosini tashkil qilgan, balki axloqiy-tarbiyaviy jihatdan ham o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar esa o‘zlarining ilmiy izlanishlari va yozgan asarlari orqali o‘rta asr islom maktablarida o‘quv dasturlarining shakllanishiga asos solganlar. Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan mantiqiy tafakkur metodlari, Ibn Sinoning tibbiy ensiklopediyasi, Beruniyning geologik va astronomik asarlari bu borada yuksak ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Ta’lim tizimining shakllanishida muhim jihatlardan biri bu – ulamolarning bilimni izchillik, mantiqiylik va bosqichma-bosqichlik prinsiplariga asoslaganidir. Maktab va madrasalardagi o‘quv dasturlari bir necha darajalardan iborat bo‘lib, avval sodda matn va savod o‘rganish, keyin esa Qur’on, hadis, tafsir, fiqh, mantiq, usul ilmlari, arab tili grammatikasi, adabiyot va boshqa fanlarga o‘tish tartibida tashkil etilgan. Bu tizim o‘quvchilarni fikrlash, tahlil qilish, dalillash va o‘z fikrini asosli ifoda etishga o‘rgatgan. Ayniqsa, fiqh va kalom fanlari o‘quvchiga murakkab masalalarni tushunish, ular ustida fikr yuritish va bahs-munozara qilish ko‘nikmasini singdirgan. Bu holat jamiyatda ilmga, ulamolarga va ta’lim jarayoniga bo‘lgan ishonch va hurmatni yanada mustahkamlagan. Markaziy Osiyo ulamolari faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmaganlar, balki ta’lim jarayonini amaliy faoliyat bilan bog‘laganlar. Ibn Sino o‘zining tibbiy amaliyotini yuritgan, Beruniy esa tajribaviy kuzatuvlar asosida tabiiy fanlarga oid asarlar yozgan. Bu jihat ularning maktab va madrasalarda faqat kitob o‘qitish bilan cheklanmay, balki amaliyotga asoslangan ilmiy izlanishlarni ham rag‘batlantirganidan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida ta’limning samaradorligini oshirgan va bilimning hayotiy qadriyat sifatida qaralishini ta’minlagan. Shu tariqa, ulamolar ilm-fan va ta’limni jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirishga erishganlar. Shuningdek, Markaziy Osiyo ulamolari

ta'lim tizimini shakllantirishda muallim-shogird an'analariga ham katta e'tibor berganlar. Ustoz va shogird o'rtasidagi aloqaning mustahkamligi, ularning bir-biriga bo'lgan hurmati va mas'uliyati ilmiy maktablarning davomiyligini ta'minlagan. Har bir yirik olim o'zidan keyingi avlodga bilimini, tajribasini va uslubini meros qilib qoldirgan. Bu ilmiy nasl-nasab orqali ilmlar bir necha avlodlar davomida yashab qolgan. Ayniqsa, hadis ilmi sohasida isnod (ya'ni, rivoyat zanjiri) tizimi orqali bilimlar aniq manbalarga tayangan holda o'rgatilgan va bu uslub ilmiy halollik, ishonchlilik va ob'ektivlikni ta'minlagan. Ulamolar ta'siri ostida shakllangan ta'lim tizimi nafaqat Markaziy Osiyo doirasida, balki butun islom olamida tan olingan. Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva, Marv va boshqa shaharlar xalqaro ilmiy markazlarga aylangan. U yerda tahsil olishga Yaqin Sharq, Hindiston, Eron, hatto Yevropaning ba'zi mamlakatlaridan talabalar kelgan. Bunday holat ilmiy almashinuv, fikrlar rang-barangligi va tafakkur erkinligini ta'minlagan. Ta'lim tizimi mintaqaviy chegaralarni kesib o'tib, umumislomiy ilmiy makon shakllanishiga xizmat qilgan. Aynan ulamolarning sa'y-harakati bilan bu hududlarda yuqori saviyali ziyolilar yetishib chiqqan, ular esa o'z navbatida boshqa mintaqalarda ham ilm-fan va ta'limga hissa qo'shganlar.

Ushbu ta'lim tizimi uzoq asrlar davomida Markaziy Osiyoning ma'naviy-ma'rifiy hayotida asosiy o'rin tutdi. Sovet davrida bu tizim jiddiy bosim ostida qolgan bo'lsa-da, mustaqillik yillaridan so'ng ulamolarning ilmiy merosiga bo'lgan qiziqish keskin oshdi. Bugungi kunda ham bu tarixiy tajribalarni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Madrasa tizimidagi an'anaviy o'quv-uslubiy tajriba, muallim-shogird munosabatlari, bosqichma-bosqich o'qitish uslublari hozirgi zamon ta'limida innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga, yosh avlodning mustahkam bilim va yuksak ma'naviyat asosida tarbiyalanishiga xizmat qilmoqda.

Islom madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida ulamolarning tutgan o'rni beqiyos bo'lib, ular nafaqat diniy-falsafiy sohalarda, balki madaniy hayotning barcha jabhalarida chuqur iz qoldirganlar. Markaziy Osiyo ulamolari o'zlarining keng qamrovli ilmiy, ma'rifiy va ijodiy faoliyatlari orqali mintaqaning madaniy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shganlar. Ularning diniy bilimlarni targ'ib qilish bilan birga, san'at, adabiyot, me'morchilik, axloq va ijtimoiy munosabatlar sohasidagi ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Ulamolarning madaniy hayotga ta'siri eng avvalo ilm-ma'rifat asosida shakllangan ijtimoiy ongda namoyon bo'lgan. Ular orqali jamiyatda o'qish va yozuvga, tafakkurga, mulohazali fikr yuritishga keng yo'l ochilgan. Bu esa o'z navbatida madaniy hayotda tafakkuriy uyg'onishning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Kitob yozish, tarjima qilish, kutubxonalar tashkil etish va ilmiy bahslar olib borish kabi faoliyatlar ulamolarning hayotining ajralmas qismi bo'lib, bu orqali madaniy muhit yuksalgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy tomonidan qadimgi yunon mualliflarining asarlari tahlil qilingan va ular sharhlangan, bu esa islom olamida falsafiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Buxoriy, Termiziy singari allomalar yozgan asarlar nafaqat ilmiy, balki badiiy va estetik qimmatga ham ega bo'lgan. Ulamolarning tomonidan yaratilgan ilmiy maktablar va madrasalar faqatgina dini ta'lim berish maskani bo'lib qolmagan, balki keng madaniy markazlar sifatida faoliyat yuritgan. Bunday ilmiy markazlarda ijodiy muhit hukm surgan, adabiyot, she'riyat, tilshunoslik, musiqa va boshqa madaniy sohalarga oid bahs-munozaralar tashkil etilgan. Masalan, Buxoro, Samarqand, Termiz, Hirot kabi shaharlardagi madrasa va kutubxonalar asrlar davomida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotining markazi bo'lib xizmat qilgan. Bu yerda yetishib chiqqan mutafakkirlar madaniy merosni yaratish va saqlashda faol ishtirok etganlar. Ulamolarning madaniy hayotdagi ta'sirini ularning axloqiy-me'yoriy qarashlari orqali ham ko'rish mumkin. Ular jamiyatda odob-axloq, halollik, poklik, bilimga hurmat kabi qadriyatlarni targ'ib qilganlar. Bu qadriyatlar orqali madaniyatning asosiy ustunlaridan biri bo'lgan axloqiy tamoyillar shakllangan. Masalan, Imom G'azzoliy va boshqa tasavvuf ulamolari tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy-nazariy qarashlar orqali nafaqat diniy ong, balki kundalik hayotiy munosabatlar ham shakllangan. Bu qarashlar adabiyot va san'atga ham chuqur ta'sir etgan. She'riyatda ma'naviy poklik, ruhiy kamolot, ilohiy muhabbat singari mavzular keng yoritilgan, tasavvufiy mushohadalar san'at asarlariga chuqur mazmun baxsh etgan. Shuningdek, ulamolarning til va adabiyot sohasidagi faoliyati ham madaniyat taraqqiyotiga bevosita xizmat qilgan. Ular arab, fors va turkiy tillarda asarlar yaratganlar, bu esa mintaqada ko'p tillilik va adabiy madaniyatning yuksalishiga olib kelgan. Xususan, Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asari arab tilshunosligida muhim manba bo'lsa, u ayni paytda til va uslub borasidagi didni shakllantiruvchi madaniy vosita sifatida ham e'tirof etiladi. Sharq adabiyotida rivoj topgan badiiy uslublar, ramzlar,

istioralar orqali o‘sha davr madaniy qarashlari, estetik tamoyillari aks ettirilgan. Ulamolarning ilmiy nasr va badiiy-nazariy uslublarni birlashtirgan asarlari zamonaviy ilm va adabiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Ulamolar faoliyati me’morchilik sohasiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, madrasalar, masjidlar, maqbaralar nafaqat dini obidalar, balki madaniy yodgorliklar sifatida ham e’tirof etilgan. Bu obidalar o‘zining me’moriy shakli, bezaklari, yozuvlari, ganch va koshin ishlari bilan yuksak estetik tafakkurni ifoda etgan. Ulamolar tomonidan yaratilgan ilmiy va dini markazlar ana shu me’moriy muhitning markazida turgan. Bu esa madaniy muhitni shakllantirish va saqlashda muhim rol o‘ynagan.

Bundan tashqari, ulamolarning madaniy hayotga ta’siri xalq og‘zaki ijodi va urf-odatlarida ham aks etgan. Ular tomonidan ilgari surilgan axloqiy va diniy tamoyillar marosimlar, xalqona odatlar, hikmatli so‘zlar, maqollar va afsonalarda mujassam bo‘lgan. Ko‘plab dostonlarda ulamolarning donishmandligi, halolligi, sabr-toqati timsol sifatida tasvirlangan. Bu esa ulamolar obro‘sining xalq orasida nihoyatda yuqori bo‘lganidan, ularning madaniy xotirada qanday mustahkam o‘rin egallaganidan dalolat beradi.

Xulosa

Markaziy Osiyo ulamolari madaniy hayotning shakllanishi va rivojlanishida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Ularning ilmiy-ijodiy merosi, axloqiy tamoyillari, estetik qarashlari va ijtimoiy faoliyati madaniyatning turli sohalariga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda bu meros nafaqat tarixiy qadriyat sifatida, balki zamonaviy madaniy taraqqiyot uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Ulamolar faoliyatini chuqur o‘rganish, ularning yondashuvlaridan foydalangan holda madaniyat siyosatini shakllantirish – bu tarixiy tajribani zamonaviy jamiyatga uyg‘unlashtirish yo‘lida muhim bosqich hisoblanadi.

Markaziy Osiyo ulamolari ta’lim tizimining shakllanishida asosiy rolni o‘ynaganlar. Ular o‘z faoliyati, asarlari va tashkil etgan ilmiy maktablari orqali ilm-fan va ta’limning rivojiga yo‘l ochganlar. Ularning ta’limga oid qarashlari, o‘quv dasturlari, o‘qitish metodlari hozirgi zamon uchun ham dolzarbligini saqlab qolgan. Bu boy merosni chuqur o‘rganish, undan zamonaviy ehtiyojlar asosida foydalanish va uni yangi avlodlarga yetkazish bugungi kunimizning muhim vazifalaridan biridir. Ulamolar tomonidan yaratilgan ilmiy meros, tashkil etilgan ilmiy maktablar, yozilgan

asarlar va joriy etilgan axloqiy-me'yoriy qadriyatlar mintaqada madaniyatning yuksalishiga, ta'lim tizimining shakllanishiga va keng ijtimoiy ongning rivojlanishiga xizmat qilgan. Ularning faoliyati diniy fanlar bilan cheklanib qolmay, falsafa, tibbiyot, matematika, tilshunoslik, tarix, adabiyot va boshqa sohalarda ham chuqur ilmiy asoslar yaratgan. Ayniqsa, ulamolarning insonparvarlik, bilimga chanqoqlik, halollik va poklik kabi g'oyalarga asoslangan faoliyati madaniyatning ichki mohiyatiga ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda bu ulkan ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish va uni zamonaviy taraqqiyot ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyolik ulamolarning faoliyati nafaqat mintaqaviy, balki jahon sivilizatsiyasi tarixida ham bebaho boylik sifatida qadrlanadi. Shu bois, ularning madaniy hayotdagi o'rni va ta'sirini chuqur o'rganish, bu merosni kelajak avlodga yetkazish har bir ziyolining muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliev, B. (2005). *O'rta asr Sharq mutafakkirlari*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
2. Ashurov, A. (2010). *O'zbek ulamolari merosi*. Samarqand: Ilm ziyo.
3. Bertels, E.E. (1975). *Srednevekovaya literatura Vostoka*. Moskva: Nauka.
4. Beruniy, A.R. (1998). *Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar*. Toshkent: Fan.
5. G'aniyeva, M. (2002). *Islom falsafasi va madaniyati*. Toshkent: Sharq.
6. Ibn Sino. (1980). *Tib qonunlari*. Toshkent: Fan.
7. Karimov, I. (1997). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
8. Komilov, N. (2009). *Tasavvuf va ma'naviyat*. Toshkent: Ma'naviyat.
9. Nasr, S.H. (2006). *Islamic Science – An Illustrated Study*. World Wisdom.
10. Qodirov, M. (2011). *Ulamolar va madaniy taraqqiyot*. Buxoro: Nur.
11. Saidov, A. (2013). *Islom madaniy merosi: tarix va bugun*. Toshkent: Sharq.